



NAQD PULSIZ OPERATSIYALARNI TASHKIL QILISH VA ULARNI HISOBINI YURITISHNING ASOSIY YO‘NALISHI

Abdumajitov Iqboljon

Andijon davlat texnika instituti

“Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada naqd pulsiz operatsiyalarni tashkil qilishning zamonaviy usullari va ularni hisobga olishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Elektron to‘lov tizimlari, bank kartalari va mobil to‘lov platformalarining ishlash prinsipi tahlil qilinadi. Naqd pulsiz operatsiyalarni hisobga olishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: naqd pulsiz operatsiyalar, elektron to‘lov tizimlari, bank kartalari, mobil to‘lov platformalari, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari.

Kirish. Iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida Respublikamizda faoliyat yuritayotgan banklarning roli tobora ortib bormoqda. Chunki xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning hech biri bank xizmatini chetlab o‘tib faoliyat yurita olmaydi, o‘zaro hisob-kitoblarini bank yordamisiz o‘tkaza olmaydi. Shu sababli bank tizimini mustahkamlash, ularning erkinligini oshirish yo‘lida islohotlarga hukumat miqyosida e‘tibor berib kelmoqda. Chunki bank tizimida o‘tkazilayotgan islohotlar nafaqat banklarning, balki butun iqtisodiyotning barqarorligini ta‘minlashga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi «2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini islox qilish strategiyasi tug‘risida»gi qarorining qabul qilinishi Respublikada faoliyat yuritayotgan banklarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Ushbu qarorda tijorat



banklarning tashkil etishga qo'yiladigan talablari, ularning operatsiyalari, imtiyozlar, kreditlash bilan bog'liq muammolarga alohida o'rin ajratilgan. Bank tizimini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu naqd pulsiz xisob-kitoblarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2024-yil boshiga ko'ra, respublikada 35 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 19 tasi xususiy, 10 tasi davlat ulushi mavjud banklar va xorijiy bank kapitali ishtirokidagilari 6 tani tashkil kiladi. Bugungi kunda respublika hududlarida tijorat banklarining 696 ta filiali va minibanklar 69 ta, bank xizmatlar markazi 1 747 ta xamda tunu-kun "24/7" rejimda ishlaydigan bank shaxobchalari 3 723 ta faoliyat ko'rsatmoqda. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning zamonaviy va mijoz uchun qulay turlaridan biri bo'lgan bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimining qo'llash doirasi kengayib, tadbirkorlar o'rtasida tobora ommalashib bormoqda.

Ushbu maqolada aynan banklararo munosabatlarni rivojlantirish, hisob-kitoblar mexanizmini shakllantirishga qaratilgan bo'lib naqd pulsiz hisob-kitoblarni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Hozirgi kunda bank tizimi kundan-kunga rivojlanib borar ekan, banklar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, xisob-kitoblarni o'tkazish mexanizimini takomillashtirish talab etiladi. Iqtisodiyotda bo'ladigan pul aylanishini 80-90 foizi naqdsiz pul aylanishini tashkil etadi. Naqdsiz pul aylanishi naqd pulsiz xisob-kitob shakllari asosida olib boriladi. Naqd pulsiz xisob-kitoblarning keng ishlatilishi ko'p tarmoqli bank tizimining rivojlanishiga davlat tomonidan makroiqtisodiy jarayonlarni o'rganishga va uni tartibga solishga, mulkchilik shakllarining ko'payishiga va turli mulkchilik munosabatlarini kengayib borishiga asos bo'ladi.

Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi mamlakatimizning mustaqillikdan keyingi dastlabki to'lov tizimi sifatida barcha to'lov tizimlari ishlashi uchun poydevor hisoblanadi [1].



Xozirgi kunda Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimida to'lovlarni amalga oshirish maqsadida 35 ta tijorat banki to'lov tizimi foydalanuvchilari sifatida ulangan.

Mazkur to'lov tizimida to'lovlar real vaqt rejimida yalpi hisob-kitob tamoyili asosida, ya'ni to'lov hujjati kelib tushgan vaqtdan boshlab bir necha soniyalar ichida to'lov amalga oshiriladi hamda natijasi haqida tashabbuskor va benefitsiarga xabar yuboriladi.

Banklararo to'lov tizimining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi. Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi qo'yidagi normativ-huqukiy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi:

- O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni (11.11.2019 y., O'RQ-582);
- O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (05.11.2019 y., O'RQ-580);
- O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni (01.11.2019 y., № O'RQ-578);
- "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom (14.02.2006 y., № 1545);
- "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizom (13.04.2020 y., № 3229).

Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi va Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi banklararo to'lov tizimining ishtirokchilari hisoblanadi. Banklararo to'lov tizimining foydalanuvchilari Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida vakillik hisobvarag'iga ega bo'lgan banklar va moliyaviy institutlar hisoblanadi [2].

Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi (MB HKM) — uning vazifasiga tijorat banklarining Bosh ofislariga (banklar) vakillik hisobvaraqlarini ochish va



xizmat ko'rsatish hamda ular o'rtasida elektron to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash kiradi.

Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi (ABM) — amaldagi qonunchilik hamda ABM va banklar o'rtasidagi shartnomalarga muvofiq banklararo to'lov tizimining texnik, dasturiy va ekspluatatsion xizmatlarini ta'minlaydigan markaz.

Banklararo to'lov tizimining ishtirokchilari va foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlari banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko'rsatish uchun foydalanuvchi banklarning MB HKM bilan, banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlar o'tkazish uchun esa — ABM bilan tuzilgan ikki tomonlama shartnoma asosida tartibga solinadi.

To'lovlar banklardan faqatgina vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i doirasida amalga oshiriladi, agarda MB HKM va bank o'rtasidagi shartnomada boshqa holat kelishilmagan bo'lsa.

Soat 9-00 dan 17-00 gacha — banklararo hisob-kitoblar bo'yicha elektron to'lov hujjatlar (ETH)ni uzatish - qabul qilish - nazorat qilish vaqti. Banklar mazkur davrning har qanday vaqtida MB HKMga ETHlarni uzatishlari mumkin;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kreditni boshqarish xususiyat (parametr)laridan kelib chiqqan holda, banklararo ETHlarining o'tkazish vaqtini to'lov tizimi masalalarini nazorat qiluvchi rais o'rinbosarining yozma farmoyishiga asosan uzaytirishi mumkin [3]. Bu haqda tizim qatnashchilari va foydalanuvchilari ETHga ishlov berish vaqtining tugashiga bir soat qolguniga qadar kechiktirilmasdan xabardor qilinadi.


2023-yilda to'lov tizimlari ishlashining uzluksizligini ta'minlash va infratuzilmasini yaxshilash orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar ko'lamini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 2023 yilda Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaktsiyalar hajmi 2022 yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib, 5 480 trln so'mni tashkil etdi. Tizim orqali bir kunlik



o'rtacha tranzaktsiyalar hajmi 2022 yildagi 16,6 trln so'mdan 22,1 trln so'mgacha ko'paydi

2-jadval

Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaktsiyalar hajmi



Манба: Марказий банк маълумотлари

Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaktsiyalar hajmining o'sishi iqtisodiyotni moliyalashtirish ko'lamini, investitsion faollik hamda Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasida pul bozoridagi operatsiyalar hajmining ortib borishi bilan izohlanadi. 2023 yilda 3 ta tijorat banklari faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalar berilishi hisobiga Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi ishtirokchilari soni 36 taga yetdi. Shuningdek, hisobot yilida Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi takomillashtirilib, bank amaliyot kuni oxirida vakillik hisobvarag'ida overdraft (qarzdorlik) shakllangan banklarning Markaziy bankning Hisobkitoblar kliring va Tezkor to'lovlar tizimidagi ishtiroki kamchilik bartaraf etilguniga qadar cheklanishiga oid norma bilan to'ldirildi.


Hisobot yilida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga to'lov operatsiyalarini tunu-kun "24/7" rejimida onlayn amalga oshirish imkonini beruvchi Markaziy bank Tezkor to'lovlar tizimining barqaror va uzluksiz ishlashi ta'minlandi. 2023 yilda mazkur tizim orqali amalga oshirilgan tranzaktsiyalar soni 2022 yilga nisbatan 1,8 barobarga oshib 31,4 mln tani, to'lovlar hajmi esa qariyb



1,4 barobarga oshib 603,8 trln so'mni tashkil etdi. Tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilayotgan to'lovlar ko'lamining ortib borishi natijasida, hisobot yili yakuniga kelib xo'jalik yurituvchi sub'ektlar jami to'lov hujjatlarining 92 foizi bankka tashrif buyurmagan holda masofadan amalga oshirilgan [4]. Bu esa, respublikamizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlarining masofadan hisobvaraqlarini boshqarish orqali Tezkor to'lov tizimi imkoniyatidan keng ko'lamda foydalanish darajasi oshib borayotganligini ko'rsatmoqda

1-jadval

Tezkor to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaktsiyalar



Hisobot yilida ushbu tizimdan amalga oshirilgan jami tranzaktsiyalar sonining 28 foizi kechki/tungi vaqtda amalga oshirilgan amaliyotlar hisobiga to'g'ri kelgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2022-yilda 17 foizni tashkil etgan. G'aznachilik tomonidan xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar byudjet to'lovlarini (xarajatlarini, ish haqi, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni bank ish kuniga bog'liq bo'lmagan holda) 24/7 rejimida, onlayn tartibda Tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bozor iqtisodiyotining muhim va ajralmas tuzilmalaridan biri hisoblanuvchi banklar tizimi va to'lov munosabatlar doimo o'zoro bog'liq shaklda rivojlanib kelgan. Respublikamizda bank infratuzilmalarining kengayib borishi banklar o'rtasidagi raqobat muhitini yanada kuchaytirmoqda.



So'nggi yillarda bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish hamda naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini kengaytirish vositalaridan biri bo'lgan plastik kartochkalardan foydalanish tizimi jadal rivojlantirilmoqda.

Hukumat qarorlariga asosan, plastik kartochkalar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishda foydalaniladigan plastik kartochkalar tizimiga oid jihozlarni import qilishda bojxona imtiyozlarining berilganligi banklarning bu boradagi faoliyatlarini yanada rag'batlantirdi.

Tijorat banklarining yagona vakillik hisob-raqami texnologiyasiga o'tishi bilan bankning ichki tuzilishi ham, normativ va hisobotlari ham tubdan o'zgardi. Bu tizimning yana shunday xususiyati mavjudki, bunda Markaziy Bank uchun pul muomalasini tartibga solishda va iqtisodiyotda pul massasini boshqarishda ma'lum qulaylik va imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Respublika hududlarida naqd pulsiz hisob-kitoblarni takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

Elektron to'lov tizimining shakllanishi viloyatlarda banklarni zamonaviy kompyuter va jihozlar bilan ta'minlanishini talab qilmoqda. Bu borada ushbu banklarni texnikaviy rivojlantrish masalalariga e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir;

Yangi bank xizmatlaridan foydalanish rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda banklar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantrish lozim. Ya'ni "Bank-mijoz", internet xizmatlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish lozim. Ushbu munosabat milliy iqtisodiyotdagi naqdsiz pul aylanishini tezlashishiga va banklararo to'lovlar tizimini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Banklarning yagona vakillik hisob raqamiga o'tishi munosabati bilan ular o'rtasidagi banklararo to'lovlarni ta'minlanishini Markaziy bank tomonidan nazoratini kuchaytirish zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 21.12.1995 y.
2. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 25.04.1996 y.
3. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy bankining “Yillik xisobot 2023” xisoboti.
4. “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 05.04.2002 y.